

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2023- yil "29" dekabr dagi
90-son buyrug'iga
ILOVA

Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar:

1. Uslubiy nizomda keltirilgan "umumiy ovqatlanish korxonalari" so'zlari chiqarib tashlansin;

2. Uslubiy nizomning 1- bandi 1- xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Uslubiy nizomda qo'llaniladigan qoidalar Statistika dasturiga muvofiq, statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan bozor va do'konlardagi o'rtacha narxlar kuzatuviga tadbiq etiladi.";

3. Uslubiy nizomning 1- bandi 2 va 3- xatboshilari chiqarib tashlansin;

4. Uslubiy nizomning 4- bandi 1- xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Narxlar kuzatuvlarini tashkil etish uchun "Bozor va do'konlarda narxlarni ro'yxatga olish so'rovnomasi"dan foydalaniladi.";

5. Uslubiy nizomning 4- bandi 2 va 3- xatboshilari chiqarib tashlansin;

6. Uslubiy nizomning 2-§ chiqarib tashlansin;

7. Uslubiy nizom 1- ilovasidagi "Bozorlar va do'konlarda narxlari kuzatiladigan tovarlar ro'yxati"ga quyidagi tartibda o'zgartirishlar kiritilsin:

ro'yxat "1-navli bug'doy unidan non" mahsuloti nomi "1-navli bug'doy unidan qolipli non (buxanka)"ga va "Kishmish" mahsuloti nomi "Mayiz (kishmish)"ga o'zgartirilsin;

ro'yxatdan "Xurmo", "Olxo'ri", "Olcha", "Anor" va "Rediska" mahsulotlari chiqarib tashlansin;

ro'yxatga yangi "Qadoqlangan sut" mahsuloti kiritilsin.

Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadigan uslubiy hujjat hisoblanadi.

Mazkur Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi bo'yicha statistika organlari tomonidan do'konlar, bozorlardagi tovarlarning narxlari kuzatuvini tashkil etish hamda alohida turdagi tovarlarning ma'lum bir davrdagi yoki aniq bir sanadagi o'rtacha, minimal va maksimal narxlarini hisoblash tartibini belgilaydi.

Narxlar kuzatuv va ularning o'rtacha, minimal va maksimal qiymatlarini hisoblash mexanizmi, iste'mol bozorida joriy narxlar holatini aniqlash va tahlil qilish, ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish maqsadlarida ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizomda qo'llaniladigan qoidalar Statistika dasturiga muvofiq, statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan bozor va do'konlardagi o'rtacha narxlar kuzatuviga tadbiq etiladi.

2. Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va iboralardan foydalaniladi:

narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir valyuta pul birligida ifodalangan tovar qiymatining ifodasi;

o'rtacha narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o'zgarishini umumlashtiruvchi narx;

minimal narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir pul birligida ifodalangan tovar qiymatining minimal ifodasi;

maksimal narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir pul birligida ifodalangan tovar qiymatining maksimal ifodasi;

narxlarni ro'yxatga olish – iste'mol sektorining namunasi sifatidagi shakllantirilgan tovarlar to'plamiga kiruvchi narxlar to'g'risida ma'lumot to'plash usuli;

kuzatuv obyekti – namuna sifatida xarid qilish uchun shakllantirilgan tovarlar va xizmatlar narxini ro'yxatga olish maqsadida tanlab olingan chakana savdo va xizmat ko'rsatish obyekti;

namuna tovar – tovarlarning sifati va asosiy iste'mol xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmaydigan darajada, bir-biridan o'ziga xos tavsifiga ko'ra unchalik katta bo'lmagan holda farqlanadigan tovar turlari yig'indisi;

3. Ushbu Uslubiy nizomda qo'llanilgan atamalar statistika organlari xodimlari tomonidan iste'mol bozorida narxlarning statistik kuzatuvlarini olib borish va ma'lum davrdagi tovarlarning o'rtacha, minimal va maksimal narxlarini hisoblash maqsadlarida ishlatiladi.

2-bob. Narxlar kuzatuvlari instrumentariyasi

4. Narxlar kuzatuvlarini tashkil etish uchun “Bozor va do'konlarda narxlarni ro'yxatga olish so'rovnomasi”dan foydalaniladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni solishtirish va aniqlik kiritish maqsadida, zarur holatlarda ro'yxatga olish ishlarida boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. Narxlar kuzatuvlarini tashkil etish

1-§. Narxlar kuzatuvlarini tashkil etishning umumiy qoidalari

5. Tovarlarning narxlarini ro'yxatga olish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida kuzatuv ro'yxatidagi tovarlar bilan yetarlicha ta'minlanganlik darajasi, assortiment soni va mezonlarni inobatga olgan holda tanlab olingan do'konlar, bozorlarda (savdo obyektlari) Statistika dasturida belgilangan muddatlarda olib boriladi.

Agar Statistika dasturiga muvofiq, kuzatuv o'tkaziladigan kun dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, kuzatuvni o'tkazish kuzatuv o'tkazish kunidan oldingi yoki keyingi yaqin bo'lgan kunga ko'chirilishi mumkin.

Ayrim hududlarda dehqon bozorlari haftaning faqatgina muayyan bir kunida faoliyat yuritishini hisobga olgan holda, kuzatuvni o'tkazish muddati oralig'i bir hafta etib belgilanadi hamda shakllantiriladigan yakuniy ma'lumotlarda Statistika dasturida belgilangan muddatga yaqin bo'lgan (kuzatuv o'tkazish kunidan oldingi yoki keyingi) kuzatuv kunining ma'lumotlari hisobga olinadi.

6. Kuzatiladigan tovarlar ro'yxati mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holati hamda aholi turmush darajasi tahlillari uchun zarur

ma'lumotlarni shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqqan holda Statistika agentligi tomonidan shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

Bozorlar va do'konlarda narxlari kuzatiladigan tovarlar ro'yxati mazkur Uslubiy nizomning 1- ilovasida keltirilgan.

7. Kuzatuvlar o'tkaziladigan savdo nuqtalarining tanlovi hududiy statistika organlarining narxlarni ro'yxatga oluvchi xodimlari (keyingi o'rinlarda – narx registratorlari) tomonidan, hududda aholining keng qatlamiga xizmat ko'rsatadigan hamda tovarlar ro'yxatidagi mahsulotlar narxlarini barqaror kuzatish imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi va ro'yxati shakllantiriladi.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati va savdo faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, savdo nuqtalari turi va soni o'zgarib turadi.

8. Iste'mol tovarlarining joriy narxlari darajasini aniqlash shahar va tuman statistika organlari xodim (registrator)lari tomonidan amalga oshiriladi.

9. Bir turdagi mahsulotning bir nechta narxlar kuzatuvini tovarlar ro'yxatida takrorlanishini hisobga olgan holda, registratorning ortiqcha ish yuklamasini kamaytirish maqsadida, bozorlar va do'konlardagi o'rtacha narxlar kuzatuvining birlamchi ma'lumotlar bazasidagi ayrim mahsulotlar bo'yicha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlardan haftalik davriylikdagi iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblarida foydalaniladi.

Haftalik iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblari uchun narxlar kuzatuvlarining tovarlar va xizmatlar ro'yxati Uslubiy nizomning 2- ilovasida keltirilgan.

Haftalik iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblari uchun narxlar kuzatuvlari "Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

2-§. Hududiy statistika organlari hodimlari tomonidan narxlar kuzatuvini tashkil etish tartibi

10. Narxlar kuzatuvlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida kuzatiladigan tovarlar ro'yxatidagi mahsulotlar bilan yetarli darajada to'yingan, assortiment soni va mezonlarini inobatga olgan holda, narx registratorlari tomonidan tanlab olingan savdo nuqtalarida amalga oshiriladi.

11. Narxlar kuzatuvini tashkil etish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1-bosqich, kuzatuvlar o'tkaziladigan savdo nuqtalari (do'konlar, bozorlar hamda ixtisoslashtirilgan boshqa turdagi savdo nuqtalari) ro'yxatini shakllantirish;

Kuzatuvlarga savdoning turli xil shartlariga ega savdo obyektlari kiritilishi uchun, unda shahar (tuman)ning aholi gavjum qismida joylashgan, hajmi jihatidan (yirik, o'rta va kichik) farqlanadigan savdo nuqtalari ishtirok etishi zarur.

Narx registratorlari tomonidan har bir hudud bo'yicha tanlab olingan savdo nuqtalari ro'yxati shakllantiriladi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati, savdo faoliyati sohasidagi o'zgarishlar, yangi savdo obyektlarining tashkil topishi, faoliyati tugatilganlari, shuningdek, ish xususiyatidan kelib chiqib kuzatuv obyektlari ro'yxati o'zgarib turishi mumkin.

2-bosqich, kuzatuv so'rovnomalari bo'yicha kuzatiladigan tovarlar ro'yxatidagi mahsulotlarning iste'mol narxlarini ro'yxatga olish;

3-bosqich, ma'lumotlarni tahlil qilish va yakuniy jadvallarni shakllantirish.

12. Kuzatuvlar narxlarni qayd etish bo'yicha kuzatuv so'rovnomalari asosida, maxsus dasturlashtirilgan planshetlarda olib boriladi.

13. Narxlar statistikasi kuzatuvlarini o'tkazish uchun planshetlarda "Tanlanma kuzatuvlar" platformasi o'rnatilgan bo'lib, mazkur platformada har bir kuzatuvlarning o'tkaziladigan savdo nuqtalari ro'yxati hamda kuzatuv so'rovnomalarni to'ldirish tartibiga mos keluvchi elektron shakllar o'rnatilgan. Narx registratorlari har bir kuzatuv bo'yicha platformaning tegishli bo'limiga kirib, mahsulotlar narxlarini elektron dasturda qayd etadi.

Planshetlarda tovarlar ro'yxatidagi har bir mahsulot bo'yicha elektron dasturga bozorlar va do'konlardagi narxlar kuzatuvini yakuniy ma'lumotlarini shakllantirish uchun 10 tagacha, ayrim hollarda haftalik iste'mol narxlari indeksi kuzatuvini yakuniy ma'lumotlari uchun 10 tadan ko'p bo'lishi mumkin.

14. Planshetlarda qayd etilgan narxlar avtomatik tarzda Statistika agentligining ma'lumotlar bazasiga kelib tushadi.

4-bob. Bozorlar va do'konlardagi narxlar kuzatuvida narxlarni ro'yxatga olish tartibi

15. Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq, mazkur kuzatuv har haftaning seshanba-chorshanba kuni, respublikaning barcha tuman va shaharlaridagi bozorlarda (mavjud bo'lsa) hamda tanlab olingan 2-5 ta savdo do'konlarida o'tkaziladi.

Do'konlarning soni mahsulot turi hamda narx tebranishlarini inobatga olgan holda belgilangan miqdordan ko'payishi yoki kamayishi mumkin.

Muayyan sabablarga ko'ra, kuzatuvga tanlab olingan do'konlar faoliyati to'xtatilgan bo'lsa yoki kuzatuv kunida tovarlar ro'yxatidagi mahsulot tanlab olingan do'konda sotuvda mavjud bo'lmasa, u holda mazkur do'kon o'rniga kuzatish natijalariga ko'ra shu turdagi yoki tovar aylanmasi darajasi yaqin bo'lgan boshqa do'kon tanlab olinadi hamda planshetning "Tanlanma kuzatuvlar" platformasida savdo nuqtalari tarkibiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

16. Narx registratori kuzatuv o'tkazish kunida, tanlanmaga tushgan kuzatuv obyektlariga tashrif buyuradi va tovarlar ro'yxatidagi bir turdagi mahsulotning savdoda kuzatilgan turli narx darajalarini planshetda qayd etadi. Bunda, narx registratori kuzatilayotgan mahsulotning turli narx darajalarini qamrab olishga e'tibor qaratishi lozim.

17. Mavsumiy omillarga ko'ra savdoda kuzatilmagan mahsulotlar bo'yicha planshetlarga "0" qiymatda narx qayd etiladi.

18. Kuzatuv obyektida mahsulotning faqat bir turi yoki bir xil narx darajalari kuzatilgan hollarda planshetda faqat bitta narx qayd etiladi.

19. Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalari "Tanlanma kuzatuvlar" platformasida narx registrarlari tomonidan qayd etilgan ma'lumotlarni tekshiradi va ular elektron ma'lumotlar bazasiga olinadi. Elektron ma'lumotlar bazasida ma'lumotlar qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, zarur hollarda qo'shimcha izohlar so'ragan holda ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

5-bob. O'rtacha narxlarni hisoblash tartibi

20. O'rtacha narxlar – narxlar to'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish orqali elektron ma'lumotlar bazasi asosida maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yordamida hisob-kitob qilinadi.

21. Tovarlarning o'rtacha narxlari turli xil assortiment o'zgarishlarini, shuningdek, hududiy, mavsumiy o'zgarishlar va boshqa omillarni hisobga olgan holda shakllantiriladi. Shunday qilib, tovarlarning o'rtacha narxlaridagi o'zgarishlar uning iqtisodiy tarkibida alohida o'ringa ega tovarlar uchun hisoblangan narx indekslaridan farqi shundaki, avvalo tovarlarning aniq narxlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish bilan birga, uning tarkibiy hamda assortiment o'zgarishlari ham inobatga olinadi.

Tarkibiy va assortiment o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi muhim omillar quyidagilardan iborat:

- yangi turdagi tovarlarning paydo bo'lishi;
- eskilarining yo'qolishi;

turlicha bo'lgan alohida turdagi tovarlarning narx darajalari ulushining o'zgarishi;

mintaqadagi o'zgarishlar natijasida hududiy narxlar orasidagi farqlanishlar, mavsumiy omillar va hokazo.

Shunga ko'ra, o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlardan doimiy ravishda narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi (9- badda belgilangan statistika ishi bundan mustasno).

22. Statistika agentligida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlari kesimida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlarning o'rtacha narxlari hisoblanadi.

23. Hududiy statistika organlarida muayyan hudud bo'yicha tovarlarning o'rtacha iste'mol narxlari quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

kuzatuv obyektlaridagi namuna-tovarlarning o'rtacha narxlarini hisoblash;

shahar va tuman kesimida tovarlarning o'rtacha narxlarini hisoblash.

24. Kuzatuv o'tkazilayotgan obyektida ro'yxatga olinayotgan tovar bir nechta assortimentdan iborat bo'lsa, u holda ushbu **savdo obyektidagi** mazkur tovar turi bo'yicha o'rtacha narx quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\overline{P_{r,k}^t} = \frac{\sum_{s=1}^n P_{k,s}^t}{n}$$

bunda:

$\overline{P_{r,k}^t}$ – t -ro'yxatga olish davrida r -kuzatuv obyektidagi k -tovarning o'rtacha narxi;

$P_{k,s}^t$ – t -ro'yxatga olish davrida (ro'yxatga olingan savdo obyektidagi k -tovarlarning turlari bo'yicha) s namuna tovarlar narxi;

n – savdo obyektida ro'yxatga olingan k -tovarning turlari bo'yicha narxlari soni.

Kuzatuv obyektida tovar xilma-xilligi chegaralanganligi sababli bir dona narx ro'yxatga olingan bo'lsa, u holda ushbu tovar turi bo'yicha kuzatuv obyektidagi o'rtacha narx aynan bir dona narxdan shakllanadi.

25. **Tuman va shaharlar** kesimida alohida tovarlarning o'rtacha narxini hisoblash quyidagi formulada aks etadi:

$$\overline{P_{i,k}^t} = \frac{\sum_{r=1}^n \overline{P_{r,k}^t}}{n}$$

bunda:

$\overline{P_{i,k}^t}$ – t - ro‘yxatga olish davrida i -shahar (tuman)dagi k -tovarning o‘rtacha narxi;

$\overline{P_{r,k}^t}$ – t -ro‘yxatga olish davrida r -kuzatuv obyektidagi k -tovarning o‘rtacha narxlari;

n – narxlar ro‘yxatga olingan kuzatuv obyektlari soni.

26. **Hududlar kesimida** tovarlarning o‘rtacha narxini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$\overline{P_{j,k}^t} = \frac{\sum_{i=1}^n \overline{P_{i,k}^t}}{n}$$

bunda:

$\overline{P_{j,k}^t}$ – t -ro‘yxatga olish davrida j -hudud (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri)dagi k -tovarlarning o‘rtacha narxi;

$\overline{P_{i,k}^t}$ – t -ro‘yxatga olish davrida kuzatuvdagi i -shahar (tuman) bo‘yicha k -tovarning o‘rtacha narxlari;

n – k -tovar bo‘yicha tanlab olingan j -hududiy shahar (tuman)lar soni.

27. **Respublika bo‘yicha** ro‘yxatga olish davridagi tovarlarning o‘rtacha narxlarini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$\overline{P_k^t} = \frac{\sum_{j=1}^n \overline{P_{j,k}^t} * d_j}{\sum_{j=1}^n d_j}$$

bunda:

$\overline{P_k^t}$ – t -ro‘yxatga olish davrida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha k -tovarning o‘rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^t}$ – t -ro‘yxatga olish davridagi j -hududlar bo‘yicha k -tovarning o‘rtacha narxlari;

d_j – respublikaning umumiy aholisi xarajatlaridan j -hudud aholisi xarajatlari ulushi;

n – k -tovar kuzatilayotgan hududlar soni.

6-bob. Oylik va yil boshiga nisbatan o‘rtacha iste’mol narxlarini hisoblash

28. Oy davomida tovar narxlari kuzatuvini bir necha marta o‘tkaziladigan bo‘lsa, u holda **hudud bo‘yicha oylik o‘rtacha narxlar** quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\overline{P_{j,k}^m} = \frac{\sum_{t=1}^n \overline{P_{j,k}^t}}{n}$$

bunda:

$\overline{P_{j,k}^m}$ – m -oyidagi j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^t}$ – t -ro'yxatga olish davridagi j -hududlar bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

n – t -oyidagi j -hudud bo'yicha ro'yxatga olingan narxlar soni.

29. Hududlardan qabul qilingan ma'lumotlardan **respublika bo'yicha** o'rtacha narxlarni hisoblash quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\overline{P_k^m} = \frac{\sum_{j=1}^n \overline{P_{j,k}^m} * d_j}{\sum_{j=1}^n d_j}$$

bunda:

$\overline{P_k^m}$ – O'zbekiston Respublikasi bo'yicha m -oyidagi k -tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^m}$ – m -oyidagi j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

d_j – respublikaning umumiy aholisi xarajatlaridan j -hudud aholisi xarajatlari ulushi;

n – k -tovarlarning o'rtacha oylik narxi bo'lgan hududlar soni.

Yil boshidan boshlab o'rtacha narxlar ma'lumotini shakllantirish ham aynan shu algoritm yordamida hisoblanadi.

30. **Yil boshidan o'rtacha** narxlarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

- hudud bo'yicha:

$$\overline{P_{j,k}^z} = \frac{\sum_{m=1}^z \overline{P_{j,k}^m}}{n}$$

bunda:

$\overline{P_{j,k}^z}$ – yil boshidan joriy z -davr (yanvar-fevral) uchun j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^m}$ – m -oyidagi j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

n – yil boshidan joriy z -davr (yanvar-fevral) uchun j -hudud bo'yicha k -tovarlarning o'rtacha oylik narxlari soni.

- respublika bo'yicha:

$$\overline{P_k^z} = \frac{\sum_{j=1}^n \overline{P_{j,k}^z} * d_j}{\sum_{j=1}^n d_j}$$

bunda:

$\overline{P_k^z}$ – yil boshidan joriy z-davr (yanvar-fevral) uchun respublika bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^z}$ – yil boshidan joriy z-davr (yanvar-fevral) uchun j - hudud bo'yicha k - tovarning o'rtacha narxi;

d_j – respublikaning umumiy aholisi xarajatlaridan j hudud aholisi xarajatlari ulushi;

n – yil boshidan joriy z-davr (yanvar-fevral) uchun k - tovarlarning o'rtacha oylik narxi bo'lgan hududlar soni.

7-bob. Choraklik o'rtacha iste'mol narxlarini hisoblash

31. **Choraklik** o'rtacha narxlarni hisoblash keyingi formulalar asosida amalga oshiriladi.

- hudud bo'yicha:

$$\overline{P_{j,k}^q} = \frac{\sum_{m=1}^3 \overline{P_{j,k}^m}}{m}$$

bunda:

$\overline{P_{j,k}^q}$ – q -chorak bo'yicha j -hududdagi k - tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^m}$ – m -oyidagi j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

m – tovarlarning oylik narxi bo'lgan q -choragida oylar soni.

- O'zbekiston Respublikasi bo'yicha:

$$\overline{P_k^q} = \frac{\sum_{j=1}^n \overline{P_{j,k}^q} * d_j}{\sum_{j=1}^n d_j}$$

bunda:

$\overline{P_k^q}$ – q -chorak bo'yicha respublikadagi k -tovarning o'rtacha narxi;

$\overline{P_{j,k}^q}$ – q -chorakdagi j -hudud bo'yicha k -tovarning o'rtacha narxi;

d_j – respublikaning umumiy aholisi xarajatlaridan j -hudud aholisi xarajatlari ulushi;

n – tovarlarning oʻrtacha choraklik narxi boʻlgan q -choragida oylar soni.

8-bob. Narxlarni qayd etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish

32. Narxlarni qayd etishga zamonaviy elektron qurilmalarni joriy etish, kuzatuv jarayonlariga maxsus dasturlashtirilgan planshetlarni joriy etilishini nazarda tutadi.

33. Planshetlar yordamida narxlarni qayd etish belgilangan tartibda tasdiqlangan statistik kuzatuvning elektron soʻrovnoma shakli asosida amalga oshiriladi. Planshetlarga dasturiy taʼminot yordamida kuzatuvlar oʻtkaziladigan savdo obyektlari hamda kuzatiladigan tovarlarning roʻyxati joylashtiriladi.

34. Narx registratorlari tomonidan planshetlarda qayd etilgan narxlar avtomatik tarzda Statistika agentligining maʼlumotlar bazasiga kelib tushadi. Statistika agentligining Narxlar statistikasi boshqarmasi xodimlari tomonidan kelib tushgan maʼlumotlar umumlashtiriladi, tegishli hisob-kitoblar amalga oshiriladi va yakuniy maʼlumotlar shakllantiriladi.

9-bob. Shakllangan maʼlumotlarni eʼlon qilish

35. Mazkur Uslubiy nizom asosida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, oʻrtacha, minimal va maksimal narxlar toʻgʻrisida jadvallar shakllantiriladi va Hukumatga, tegishli vazirlik va idoralarga, shuningdek, soʻrovlarga asosan boshqa manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi.

36. Statistika dasturiga muvofiq, belgilangan muddatlarda narxlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Statistika agentligining statistika integrallashgan axborot tizimi va rasmiy veb-saytida eʼlon qilib boriladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

37. Uslubiy nizom asosida hisoblangan narxlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan respublika hududlari isteʼmol bozorlaridagi joriy narxlar holatini aniqlashda maʼlumotlar manbai sifatida statistik maqsadlarda foydalanish mumkin.

38. Ayrim turdagi tovarlar narxlari boʻyicha shakllantirilgan maʼlumotlardan huquqiy bahs-munozaralarda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, savdo bitimlarida qarorlar qabul qilish va boshqa kelishuvlarda foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

“Iste’mol bozorida tovarlarning
narxlar darajasini aniqlash yuzasidan
narxlar kuzatuvlarini tashkil etish
va hisoblash bo’yicha uslubiy nizomga”ga
1-ILOVA

Bozorlar va do‘konlarda narxlari kuzatiladigan tovarlar ro‘yxati

T/R	Tovarlar nomi	O‘lchov birligi
1.	Uzun boshqoli guruch	kg
2.	Yumaloq boshqoli guruch	kg
3.	Arpa	kg
4.	Bug‘doy	kg
5.	Jo‘xori	kg
6.	Kepak	kg
7.	Kunjara	kg
8.	Shrot	kg
9.	Shulxa	kg
10.	Kombikorm	kg
11.	Oliy navli bug‘doy uni	kg
12.	Birinchi navli bug‘doy uni	kg
13.	1-navli bug‘doy unidan qolipli non (buxanka)	kg
14.	Obi (tandir) non	kg
15.	Makaron	kg
16.	Mol go‘shti (suyaksiz go‘shtdan tashqari)	kg
17.	Mol go‘shti (suyaksiz)	kg
18.	Qo‘y go‘shti	kg
19.	Tovuq go‘shti (sonlaridan tashqari)	kg
20.	Tovuq boldiri, son qismlari	kg
21.	Tirik, yangi, sovutilgan baliq	kg
22.	Muzlatilgan baliq	kg
23.	Yangi sog‘ilgan sut	l l
24.	Qadoqlangan sut	l l
25.	Qatiq	l l
26.	Tuxum	10 dona
27.	Paxta yog‘i	l l
28.	Kungaboqar yog‘i	l l
29.	Sariyog‘	kg
30.	Limon	kg

T/R	Tovarlar nomi	O'lchov birligi
31.	Olma	kg
32.	Nok	kg
33.	Gilos	kg
34.	Shaftoli	kg
35.	O'rik	kg
36.	Bexi	kg
37.	Qulupnay	kg
38.	Uzum	kg
39.	Tarvuz	kg
40.	Qovun	kg
41.	Mayiz (kishmish)	kg
42.	Karam	kg
43.	Bodring	kg
44.	Pomidor	kg
45.	Baqlajon	kg
46.	Bulg'or qalampiri	kg
47.	Qovoq	kg
48.	Xo'raki lavlagi	kg
49.	Sabzi	kg
50.	Sarimsoq	kg
51.	Piyoz	kg
52.	Kartoshka	kg
53.	Loviya	kg
54.	No'xat	kg
55.	Mosh	kg
56.	Shakar	kg
57.	Sement	kg
58.	Oynalar	1 m/kv
59.	Pishgan g'isht	1000 dona
60.	Yog'och materiali	1 m/kub

“Iste’mol bozorida tovarlarning
narxlar darajasini aniqlash yuzasidan
narxlar kuzatuvlarini tashkil etish
va hisoblash bo’yicha uslubiy nizom”ga
2-ILOVA

Haftalik iste’mol narxlari indeksi kuzatuvining tovarlar va xizmatlar ro’yxati

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O’lchov birligi
1.	Uzun boshqoli guruch	kg
2.	Yumaloq boshqoli guruch	kg
3.	Oliy navli bug’doy uni	kg
4.	Birinchi navli bug’doy uni	kg
5.	Birinchi navli bug’doy unidan tayyorlangan non	kg
6.	Obinon	kg
7.	Makaronlar, spagetti	kg
8.	Mol go’shti (suyaksiz go’shtidan tashqari)	kg
9.	Suyaksiz mol go’shti	kg
10.	Qo’y go’shti	kg
11.	Parranda go’shti (sonlaridan tashqari)	kg
12.	Tovuq boldiri, son va boshqa qismlari	kg
13.	Pishirilgan kolbasa	kg
14.	Dudlangan va yarim dudlangan kolbasa	kg
15.	Tirik, yangi, sovutilgan baliq	kg
16.	Muzlatilgan baliq	kg
17.	Xom sut (yangi sog’ilgan)	l l
18.	Kefir, qatiq	l l
19.	Suzma	kg
20.	Tovuq tuxumlari	10 dona
21.	Paxta moyi	l l
22.	Kungaboqar moyi	l l
23.	Sariyog’	kg
24.	Margarin	kg
25.	Limonlar	kg
26.	Olmalar	kg
27.	Karam	kg
28.	Yangi uzilgan bodringlar	kg
29.	Yangi uzilgan pomidorlar	kg

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
30.	Sabzi	kg
31.	Piyoz	kg
32.	Kartoshka	kg
33.	Loviya	kg
34.	No'xat	kg
35.	Mosh	kg
36.	Shakar	kg
37.	Karamel konfetlar	kg
38.	Aroq	l l
39.	Sigaretlar	1 quti
40.	Erkaklar uchun kostyum	dona
41.	Erkaklar uchun shimlar, djinsi shimlar	dona
42.	Erkaklar uchun ko'ylaklar	dona
43.	Erkaklar paypog'i	juft
44.	Ayollar uchun kolgotkalar, chulki-paypoq mahsulotlari	juft
45.	Qiz bolalar uchun paypoq, kolgotka, chulki-paypoq mahsulotlari	juft
46.	Erkaklar uchun tuflilar	juft
47.	Ayollar uchun tuflilar	juft
48.	Yosh bolalar uchun krossovkalar va shu kabi poyafzallar	juft
49.	Sement	1 kg
50.	Deraza oynasi	1m ²
51.	Sovuq suv va kanalizatsiya uchun haq to'lash	1m ³
52.	Ko'p xonadonli uylarda ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash	1m ²
53.	Elektr energiyasi uchun haq to'lash	kvt/soat
54.	Xo'jalik sovuni	300 gr
55.	Shamollashga qarshi dori vositalari	10 tabletka
56.	Benzin	l l
57.	Shaxsiy transport vositalari uchun propan	l l
58.	Shaxsiy transport vositalari uchun metan	kub.m.
59.	Shahar avtobusida yo'l haqi	1 martalik qatnov
60.	Televizor	dona
61.	Har hafta chiqadigan gazetalar (chakana sotuvda)	dona
62.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	bir oy uchun
63.	Oshxonadagi tayyor taomlar	1 kishi uchun to'liq tushlik
64.	Pul o'tkazmalari uchun haq to'lash	1 xizmat
65.	Soch uchun shampunlar	250 ml